O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

Navoiy sh., Amir Temur.k 4.

2022 - yil 6 - dekabr 311-5-79-Q/22 Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahridagi avtomobil yo‘llariga svetoforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Navoiy shahrida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetoforlar o‘rnatilsin.

2. Navoiy viloyati IIB JXX YHXB (Yunusmetov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Ortiqov)ga shahardagi avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetoforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Navoiy shahar IIB YHXB (Dexqonov)ga shahar hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Navoiy ziyosi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (lavozimi bo‘yicha) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **M.Egamqulov**

Navoiy shahar hokimining
2022 yil 6 dekabrdagi
311-5-79-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahridagi avtomobil yo‘llariga o‘rnatiladigan svetoforlar bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1	Navoiy ko‘chasi	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ ma’muriy binosi yon tomoni	1 ta	3.27
2	Navoiy ko‘chasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyat bo‘yicha Xalq qabulxonasi old tomoni	1 ta	3.27
3	Bunyodkor ko‘chasi	Navoiy viloyat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan (ko‘zi ojiz) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan “Nurli maskan” maktab-internatining old tomoni	1 ta	3.27